



**O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISHDA AN'ANAVIY TARBIYA VA AXLOQIY
QADRIYATLARINING O'RNI**

Abdisalamova Ruxshona Asqar qizi

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

abdisalomovaruxshona@gmail.com

Saydulloyeva Shoxsanam Mashraffjonovna

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

boshlang'ich va maktabgacha ta'lim

nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

shoxsanamsaydulloeva94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida milliy an'anaviy tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning pedagogik tizimdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. An'anaviy tarbiyaning o'quvchi shaxsini kamolga yetkazishdagi tarbiyaviy imkoniyatlari, o'qituvchining kasbiy madaniyatini, kommunikativ ko'nikmalarini hamda axloqiy mas'uliyatini rivojlantirishdagi ta'siri asoslab berilgan. Maqolada qadimiy tarbiya an'analari va zamonaviy pedagogik kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ma'naviy qadriyatlar tizimi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Kompetensiya, o'qituvchi, kompetentlik, o'quvchilar, ta'lim, tarbiya, malaka, axloqiy qadriyatlar, an'anaviy tarbiya, kasbiy kompetensiya, mutaxassis.*



Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan. Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv G‘arb ilmiy adabiyotlarida 60-yillardan boshlab, mahalliy adabiyotlarda esa XX asrning 90-yillaridan boshlab mehnat bozorining mutaxassis shaxsiga bo‘lgan talablari ortishi tufayli shakllana boshladi. Unda uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorlik, ishbilarmonlik aloqalari, hamkorlik, nostandart vaziyatlarda harakatlar, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash, xatti-harakatlar va faoliyatda o‘z-o‘zini boshqarish, turli ma’lumot manbalari va samarali ishlash qobiliyati, raqobat muhitida xulq-atvorga e’tibor kuchaytirildi. Ushbu talablar talabalar zamonaviy mehnat bozorining moslashuvchanligi, o‘zgaruvchanligi va yuqori innovatsion dinamikasi kabi xususiyatlar bilan belgilandi.

“Kompetensiya” atamasi mehnat psixologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida ta’lim sohasiga kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, o‘zaro munosabatlarda qanday yo‘l tutishi, noaniq vaziyatlarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda egalik” ni anglatadi.

“Kompetentlik” (*ingliz. "competence" - "qobiliyat"*) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish kompetentlik deyiladi. Xorijiy adabiyotlarda bu atama “chuqur bilim”, “topshiriqni adekvat bajarish holati”, “haqiqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” deb ta’riflanadi. Shuningdek, kompetensiya bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, ma’lum bir vaqtda dolzarb bo‘lgan yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishini, yangi bilimlarni qayta ishlash va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini nazarda tutadi. Vakolatli mutaxassis muommolarni hal qilishning o‘zlashtirilgan usullarini qo‘llashi va muayyan sharoitlarga qarab, ma’lum bir vaziyatda eng samarali bo‘lgan usulni qo‘llashi, shuningdek, yolg‘onni ishonchli rad etadigan ko‘plab yechimlar orasidan eng maqbulini tanlash qobiliyatiga ega bo‘lishi



kerak bo‘lganlar, ya’ni tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega insonlarga aytiladi. Shunday qilib, “kompetentlik” tushunchasining mazmuni bilimlarning harakatchanligi, uslubning moslashuvchanligi, va tanqidiy fikrlash qobiliyati kabi asosiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi kasbiy kompetensiya deyiladi. Kasbiy kompetensiya mutaxassis tomonidan alohida bir bilim, malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassis bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishda muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetensiya quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi. Shuningdek, kasbiy kompetentlik bir qancha sifatlarga bo‘linadi, ya’ni ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentliklarga bo‘linadi.



Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogikaga xos kasbiy kompetensiya va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'zbekistonda ham pedagogga xos kasbiy kompetensiya va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentlik, psixologik yondashuvlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassalarida ta'lim olish jarayoni bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning endi maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga, tarbiyachilar, sinf va maktab rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti-harakatlari o'quvchilarga, umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadida xizmat qilishi lozim. Bu ish, o'z navbatida, muallim va o'quvchilardan axloqiy nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'qituvchi odobiga doir bilimlarning muntazam ravishda oshirib borishni, muhokama, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushinish, mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish mas'uliyatli



ish bo'lib, buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan axloqiy faktlar, misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'qituvchidan yaxshi xulq egasi bo'lishini, axloqiy tajribaga ega bo'lishini, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi. Shu bilan birga, muallim o'quvchilarga muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularning axloqiy bilimli qilishi, bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba orttirishlariga ko'maklashishi, o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga xizmat qiladi.

Axloqiy qadriyat va an'anaviy tarbiya pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning maqsadi umuminsoniy va milliy axloqning mohiyatini, qonuniyatlarini, uning tamoyillari, talablari, qoidalariga doir bilimlarni, axloqning odamlar hayotidagi o'rni va rolini o'quvchilarga singdirishdir. O'quvchilarga xodimlarning hammasi barcha fan o'qituvchilarining faoliyati shu maqsadga qaratilishi zarur. O'zbekiston maktablarida "Tarbiya" o'quv predmeti sifatida o'qitilayotgani ham o'quvchilarni axloqiy-ma'rifatli qilishdek muhim vazifani a'lo bajarishga, o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini yaxshilashga da'vat etmoqda.

An'anaviy tarbiya bu xalqning asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy tajriba, odob- axloq me'yorlari, urf-odatlar, diniy-ma'naviy qadriyatlar hamda ijtimoiy hayot tajribasiga asoslangan tarbiya tizimidir. U zamonaviy ta'limda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollik, axloqiy yetuklik kabi fazilatlarni shakllantirishda asosiy manba sifatida qoraladi.

Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda: "Tarbiya biz uchun ya hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat masalasidir".

E.G'.G'oziyev (pedagog olim) an'anaviy tarbiyani shunday izohlaydi: "An'anaviy tarbiya - bu xalq pedagogikasining asosi bo'lib avloddan avlodga o'tuvchi aqliy va estetik qadriyatlarni o'z ichiga oladi"- deydi.



O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni bu nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasini oshirishni ham o'z ichiga oladi. Chunki o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib voyaga yetkazuvchi shaxsdir. Shu bois, an'anaviy tarbiya o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining shakllanishida alohida o'rin tutadi. An'anaviy tarbiya aynan shu jihatdan o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi o'z faoliyatida xalqimizning tarbiyaviy tajribalariga tayangan holda, o'quvchilarga nafaqat bilim, balki ma'naviy qadriyatlarni ham singdiradi. Shunda o'qituvchi o'z xatti-harakati, muomalasi, odobi bilan o'quvchilarga ibrat bo'ladi. Masalan, an'anaviy tarbiyada ustoz-shogird munosabati muhim o'rin tutadi. Ustozning halolligi, sabr-bardoshi, adolatliligi va mehnatsevarligi shogird uchun hayotiy namunadir. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z kasbida nafaqat bilimli, balki axloqan toza, ma'naviy barkamol shaxs bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida uning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qituvchi har kuni o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi, ularning ruhiyatini, axloqini shakllantiradi. Agar o'qituvchi o'z faoliyatida an'anaviy tarbiya tamoyillariga amal qilsa, u o'quvchilarga insoniy fazilatlarni singdirishda katta hissa qo'shadi. Masalan, dars jarayonida milliy maqollar, hikmatlar, tarixiy shaxslarning namunaviy hayoti haqida suhbatlar o'tkazish orqali o'quvchilarga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi sifatlarni rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasida ham an'anaviy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Xalqimizda "so'z odobi", "muomala madaniyati" kabi qadriyatlar mavjud. O'qituvchi bu qadriyatlarni o'z muloqotida, nutqida, o'quvchi va ota-onalar bilan bo'lgan aloqalarida namoyon etganda, u haqiqiy pedagogik madaniyat sohibiga aylanadi. An'anaviy tarbiya o'qituvchini o'z kasbiga mehr bilan yondashishni, insonlarga hurmat bilan qarashni, bolalarni mehr bilan tarbiyalashni o'rgatadi. Shuningdek, tarbiya o'qituvchining ma'naviy



immunitetini mustahkamlaydi, uni har qanday yod g'oyalar, loqaydlik va befarlikdan himoya qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishi o'qituvchidan nafaqat bilim va ko'nikmaga, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishini ham talab etadi. Chunki o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularning dunyoqarashini, ma'naviy- axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi shaxsdir. Shu bois o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Axloqiy qadriyatlar inson faoliyatini boshqaruvchi, uning xulq-atvori va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi ma'naviy- me'yoriy fazilatlar hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar halollik, adolat, or-nomus, mehr-shafqat, hurmat, vatanparvarlik, sabr-toqat, mas'uliyat kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining qadimiy tarbiyaviy an'analari ham aynan shu qadriyatlarga tayangan. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida ana shu qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etgan holda o'quvchilarga ibrat bo'lishi, ularni ma'naviy jihatdan barkamol insonlar sifatida tarbiyalashi lozim.

Axloqiy qadriyatlar o'qituvchi kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki o'qituvchining o'quvchilar bilan bo'lgan muomalasi, otalar bilan aloqasi, kasbiy burchiga bo'lgan munosabati bevosita uning axloqiy qarashlari va shaxsiy qadriyatlariga bog'liqdir. Masalan, adolatli, halol, mehribon va mas'uliyatli o'qituvchi o'quvchilar uchun ibrat bo'ladi, ularning tarbiyaviy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'qituvchi o'z bilimini tarbiyaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. Axloqiy qadriyatlar bilan boyitilgan o'qituvchi jamiyatda yuksak obro'-e'tibor qozonadi, namuna bo'ladi va ta'lim sifati hamda tarbiya samaradorligini oshiradi. An'anaviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar bir- birini to'ldiruvchi, o'zaro mustahkamlovchi tizimdir. An'anaviy tarbiya axloqiy qadriyatlarning manbai bo'lsa, axloqiy qadriyatlar esa an'anaviy tarbiyaning



maqsadi va mazmunidir. Bu birlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasida insonparvarlik, adolat, halollik, mas'uliyat, vatanparvarlik kabi asoslarni yaratadi:

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy tarbiya va axloqiy qadriyat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki u o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxsga aylantiradi. Bunday o'qituvchi o'z o'quvchilariga faqat fan bilimlarini emas, balki insoniylik, halollik, mehr- oqibat, vatanparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni ham singdiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N. A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" / Monografiya. - T.: Fan, 2004.
2. G'oziyev, E. G'. (2015). Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan.
3. Mavlonova, R (2018). Pedagogika. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Nishonov, A. (2020). Xalq pedagogikasi: tarix va nazariya. Samarqand. SamDU.
5. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq- Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. To'xtasinova, D. Pedagogik kompetensiya va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024.
7. Muslimov N. A., va boshqalar "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" / Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.